



## TIL O'RGANISHDAGI QIYINCHILIKLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH USULLARI

Abdusamadova Ruxshona Tursunali qizi

Student at Oriental University

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada til o'rganish jarayonida yuzaga keladigan asosiy qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish usullari ko'rib chiqiladi. Bunda o'quvchilarning nutqiy faoliyatida qo'rquv hissining yuzaga kelishi, grammatik, leksik, fonetik xatolar shuningdek so'z yodlash va ularni gapda qo'llay olmaslik muammolarini kelib chiqish sabablari ko'rsatib o'tiladi. Maqolada til o'rganishda amaliy mashqlar, online platformalar, zamonaviy metodlar orqali ularni amalda qo'llay olish usullari yoritib berilgan. Shuningdek til o'rganish jarayonida to'g'ri yondashuv va muntazam tarzda o'qish orqali yangi tilni tez va samarali o'zlashtirish mumkinligiga alohida e'tibor qaratiladi.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy metodlar, online platformalar, amaliy mashqlar, grammatika, fonetika, leksika.

Bugungi kunda chet tillarini o'rganish global jarayonlarning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Til bilish nafaqat turli xalqlar o'rtasida muloqot qilish vositasi, balki shaxsning intellektual rivojlanishi, kasbiy o'sishi va dunyo qarashining kengayishida ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ayniqsa, yoshlar orasida chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Lekin shu bilan birga, til o'rganish jarayoni har doim ham oson kechavermaydi.

O'quvchilar bu jarayonda turli qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu qiyinchiliklar ularning tilni o'zlashtirish tezligi va samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Mazkur muammolarni o'z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish muhim ahamiyatga ega. Til o'rganishda eng keng tarqalgan muammolardan biri- o'quvchilarning og'zaki nutq jarayonida xato qilishdan qo'rqishdan qo'rquv hissining mavjudligidir.

Ko'pchilik o'quvchilar o'z fikrini chet tilida ifodalashga urinayotganda xato qilishdan cho'chiydi. Natijada ular gapirishdan qochadi yoki juda qisqa va sodda jumlar bilan cheklanib qoladi.

Bu esa ularning nutqiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, grammatik qiyinchiliklar ham til o'rganishda muhim o'rin tutadi. O'quvchilar grammatik qoidalarni nazariy jihatdan tushunishlari mumkin, biroq ularni amaliy nutqda to'g'ri qo'llashda qiynaladilar. Ayniqsa, zamonlar gap tuzilishi va fe'l shakllari bilan bog'liq xatolar tez-tez uchraydi.

Yana bir dolzarb muammo- so'z boyligining yetarli emasligidir. Til o'rganishda leksik baza juda muhim o'rin egallaydi. O'quvchilar yangi so'zlarni yod olishga harakat qiladilar, lekin ularni muntazam takrorlamaslik yoki amaliyotda qo'llamaslik natijasida tezda unutib yuboradilar. Natijada ular o'z fikrlarini to'liq ifoda etishda qiynaladilar.

Fonetik qiyinchiliklar ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Talaffuzdagi xatolar ko'pincha o'quvchilarning nutqini tushunishni qiyinlashtiradi.



Ayirim tovushlar ona tilida mavjud bo'lmaganligi sababli ularni to'g'ri talaffuz qilish o'quvchilar uchun qiyinchilik tug'diradi. Bu esa muloqot jarayonida noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, eshitib tushunish ko'nikmasining pastligi ham muhim muammolardan biridir.

Ko'plab o'quvchilar darslikdagi matnlarni tushunsalar ham, real hayotdagi tez va tabiiy nutuqni tushunishda qiynaladilar. Bu esa ularning chet tilida erkin muloqot qilish imkoniyatini cheklaydi. Yana bir etibor berishimiz kerak bo'lgan jihati motivatsiyaning yetarli emasligidir.

Agar o'quvchi til o'rganishda o'ziga nisbatan yetarli kuchni his qilmasa va bunga qiziqmasa unda bu yo'nalishda faol davom eta olmasligi mumkin. Motivatsiya past bo'lganligi sababli bunday hollarda o'quvchilar tezda zerikib qolishlari yokida charchoqni his etishlari va bu orqali o'rganishga bo'lgan ishtiyoqi kamayishi mumkin.

Til o'rganish jarayonida yuqorida sanab o'tilgan muammolardan tashqari yan bir qancha omillar ham mavjud bo'lib, ular o'quvchilarning tilni o'zlashtirish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ana shunday muammolardan biri- o'z ona tilidagi qonun qoidalar bilan adashtirib qo'yishidir. O'quvchilar ko'pincha o'z ona tilidagi gramatik qoidalar va gap tuzilishini chet tilida ham foydalanib qo'yish orqali bir qancha xatolarga yo'l qo'yishi kuzatiladi.

Natijada noto'g'ri gaplar yuzaga keladi va nutq tabiiy chiqmaydi. Bu holat ayniqsa boshlang'ich bosqichlardagi o'quvchilarda tez-tez uchraydi. Yana bir muhim muammolardan biri bu fikrni to'g'ridan to'g'ri chet tilida emas, balki tarjima orqali ifodalashga odatlanishidir. Bu esa nafaqat vaqtni ko'p oladi, balki nutqning ravonligiga ham salbiy ta'sir qiladi. Natijada o'quvchi tez va erkin muloqot qila olmaydi.

Shuningdek muntazam ravishda darslarni qilmaslik o'z ustida ishlamaslik va o'tilgan vazifalarni takrorlamaslik ham til o'rganish jarayonini sekinlashtiradi va juda ko'p vaqtni oladi. Ko'pchilik o'quvchilar tilni faqatgina dars jarayonida o'rganish bilan cheklanadi. Biroq til o'rganish doimiy takrorlash va amaliyot talab qiladi. Agar o'quvchi muntazam shug'ullanmasa, o'rgangan bilimlari tezda unutiladi va rivojlanish sekinlashadi. Chet tilida muloqot qilishi muhiti yetishmasligi ham muhim omillardan biridir. O'quvchilar o'rgangan bilimlarini amalda qo'llash imkoniyatiga ega bo'lmasalar, ularni mustahkamlash qiyinlashadi. Real muloqot muhiti bo'lmaganida, til o'rganish faqat nazariy darajada qolib ketishi mumkin.

Bundan tashqari, o'quvchilarda to'g'ri o'rganish strategiyasining shakillanmaganligi ham muhim muammolardan hisoblanadi. Har bir til o'rganuvchi o'ziga mos usluni tanlashi zarur, ammo ko'pchilik qanday o'rganishni bilmaydi. Natijada ular vaqtni samarasiz sarflaydilar va kutilgan natijaga erisha olmaydilar. Hozirgi kunda o'quvchilar orasida tez-tez uchraydigan muammolardan yana biri- diqqatning tez chalg'ishi hisoblanadi.

Zamonaviy texnologiyalar, xususan ijtimoiy tarmoqlar, mobil telefonlar va turli platformalardan hadan tashqari ko'p foydalanish ham o'quvchilarning diqqatini jamlashga salbiy ta'sir ko'rsatadi va etiborini juda tez chalg'itadi. Bular sababli o'quvchilar o'qishga yetarlicha e'tibor qaratmaydilar va natijada ular dars jarayonida yoki mustaqil o'qish vaqtida diqqatni uzoq vaqt jamlay olmaydilar. Shuningdek har bir o'quvchining individual xususiyatlari ham muhim ro'l o'ynaydi. O'quvchilar o'zlashtirish tezligi, qiziqishi va



qobilliyatiga kp'ra bir-biridan farq qiladi. Agar bu jihatlar hisobga olinmasa, ayirim o'quvchilar ortda qolib ketishi mumkin.

Yuqorida sanab o'tgan muammolarni bartaraf etish uchun ularni o'z vaqtida aniqlash va samarali usullar orqali bartaraf etish muhim ahamiyatga ega. Sabab yuqorida aytib o'tganimizdek bu qiyinchiliklar o'quvchilarning tilni o'zlashtirish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Til o'rganishda yuqori natijalarga erishish, avvalo, to'g'ri yondashuvni talab etadi shu sababli til o'rganuvchi avvalo o'rganish jarayonini aniq reja asosida tashkil etsa va muntazam ravishda mashg'ulot olib borsa, u tilni tezroq va samaraliroq o'zlashtirishi mumkin. Shu bois til o'rganishda tartib va doimilik muhim o'rin tutadi. Bundan tashqari o'quvchi til o'rganishga qancha vaqt ajirasmasin agar u noto'g'ri tartibda tuzilgan reja asosida ish olib boradigan bo'sa o'quvchi qancha vaqt ajiratishidan qat'i naza natija sekinlashadi.

Aksincha, o'rganish jarayoni reja asosida, bosqichma-bosqich va maqsadga yo'naltirilgan tarzda olib borilasa, qisqa vaqt ichida sezilarli natijalarga erishish mumkin. Til o'rganishda tizimlilik alohida ahamiyat kasb etadi. Tartibsiz vaqti-vaqti bilan o'qish o'rniga o'quvchi o'ziga aniq reja tuzishi lozim. Masalan, haftaning ma'lum kunlari grammatikani o'rganish, boshqa kunlari esa tinglab tushunish yoki gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor qaratishi mumkin. Shu tarzda har bir ko'nikma bir maromda rivojlanadi.

Bunday yondashuv bilimlarning mustahkamlaishiga xizmat qiladi va o'rganilgan material tezda unutilib ketishining oldini oladi. Biroq nazariy bilimlarning o'zi yetarli emas. Til bu- avvalo amaliy vosita, ya'ni u muloqot uchun xizmat qiladi. Shu sababli o'rganish jarayonida amaliy mashg'ulotlarga ko'proq e'tibor qaratish zarur. O'quvchilar yangi o'rgangan grammatik qoidalarni faqat yodlabgina qolmasdan, ularni gap tuzishda, kichik matnlar yozishda va suhbatlarda qo'llash kerak.

Ayniqsa, dialoglar tuzish, rolli o'yinlar tashkil etish va guruhli muhokamalar o'quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi. Bunday mashg'ulotlar davomida o'quvchi xato qilishdan qo'rqamaydi, chunki jarayon tabiiy muloqotga yaqin shaklda tashkil etiladi. Shu orqali til o'rganishda keng tarqalgan muammolardan biri- tarjima orqali fikirlashga ham to'htalish lozim. Bu odatni bartaraf etish uchun o'quvchini asta-sekin doimiy tarzda chet tilida fikrlashga o'rgatish kerak. Dastlab sodda gaplardan boshlanib, keyinchalik murakkabroq fikrlarni ifodalashga o'tiladi. Masalan, kundalik hayotdagi oddiy holatlar haqida chet tilida o'ylash, o'z-o'ziga savollar berish va ularga javob qaytarish bu borada samarali uslub hisoblanadi. Vaqt o'tishi bilan o'quvchi tarjimaga ehtiyoj sezmay, to'g'tidan-to'g'ri chet tilida fikr yurita boshlaydi. So'z boyligini oshirish ham til o'rganishning ajiralmas qismi hisoblanadi.

Biroq so'zlarni alohida yodlash ko'pincha kutilgan natijani bermaydi. Eng samarali usul- ularni kontekstda o'rganishdir. Ya'ni yangi so'zlar gap ichida, matn tarkibida yoki real vaziyatlar asosida o'zlashtirilsa, ularning ma'nosi aniqroq anglashiladi va xotirada uzoq saqlanadi. Shuningdek, yangi so'zlarni muntazam takrorlash, ularni yozma va og'zaki nutqda qo'llash orqali mustahkamlash mumkin. Bu jarayonda turli kartochkalar, testlar interaktiv mashqlardan foydalanish ham foydali hisoblanadi.



Eshitib tushunish va talaffuzni rivojlantirishda esa audio va video materiallarning o'рни juda yuqori. O'quvchilar turli filimlar, podkastlar, video darslar orqali tilni tabiiy muhitda eshitib o'rganadilar. Bu esa ularning nafaqat tinglab tushunish ko'nikmasini, balki talaffuzini ham yaxshilaydi. Ayniqsa, eshitilgan nutqni takrorlash usuli yani shadowing juda samarali bo'lib, u orqali o'quvchi intonatsiya va urg'uni to'g'ri qo'llashni o'rganadi.

Zamonaviy texnologiyalar til o'rganishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Turli online platformalar, mobil ilovalar va interaktiv dasturlar orqali o'quvchilar mustaqil ravishda ham bilimlarini oshirishlari mumkin. Bunday vositalar o'rganish jarayonini nafaqat osonlashtiradi, balki qiziqarli ham qiladi.

Ayniqsa, interaktiv mashqlar va testlar o'quvchining bilimini mustahkamlashda muhim ro'l o'ynaydi. Shu bilan birga, o'quvchilarning diqqatini jamlash va vaqtni to'g'ri taqsimlash ham alohida e'tibortalab qiladi. Zamonaviy hayotda chalg'ituvchi imillar ko'p bo'lgani sababli o'quvchi o'ziga qulay o'quv muhiti yaratishi zarur. Masalan, o'qish vaqtida telefonni chetga qo'yish, tinch joyda mashg'ulot olib borish va aniq vaqt rejasiga amal qilish o'rganish samaradorligini oshiradi.

Kuniga hatto qisqa vaqt ajratish ham, agar u muntazam bo'lsa, katta natija beradi. Motivatsiya esa butun jarayonning harakatlantiruvchi qismi yani kuchi hisoblanadi. Agar o'quvchi o'z oldiga aniq maqsad qo'ysa va unga erishishga intilsa, har qanday qiyinchilikni yengib o'tishi mumkin. Shu sababli o'rganish jarayonida kichik natijalarni ham qadirlash, o'z ustida ishlashdan zavqlanish muhimdir.

Xulosa; xulosa qilib aytganda, til o'rganish jarayoni o'ziga xos murakkabliklarga ega bo'lib, bu turli qiyinchiliklarni yuzaga kelishi tabiiy holat hisoblanadi. O'quvchilar nutqiy erkinlikni yetishmasligi, so'z boyligining kamligi, grammatik xatolar, diqqatning tez chalg'ishi kabi muammolarg duch kelishlari mumkin.

Biroq ushbu qiyinchiliklar til o'rganishni imkonsiz qilmaydi, aksinch, to'g'ri yondashuv orqali ularni yengib o'tish mumkin. Tilni samarali o'zlashtirish avvalo, muntazam mashg'ulot olib borish, o'rganilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash va o'z ustida doimiy ishlashga bog'liq.

Shuningde, zamonaviy texnologiyalar, turli interaktiv usullar va online platformalardan foydalanish o'rganish jarayonini yanada qulay va samarali qiladi. Har bir o'quvchi o'ziga mos o'rganish usulini topib, uni doimiy ravishda davom ettirsa, kutilgan natijaga erishishi osonlashadi. Shu bilan birga, til o'rganishda sabir-toqat va motivatsiya ham muhim o'rin tutadi. O'rganish jarayonida kichik yutuqlarni qadirlash, xatolardan to'g'ri xulosa chiqarish va oldinga intilish o'quvchining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuni aytish mumkinki, til o'rganishda muvaffaqiyatga erishish ko'p jihatdan o'quvchining o'ziga bog'liq bo'lib, to'g'ri yo'l tutish, muntazam shug'ullanish va faol harakat qilish orqali yaxshi natijalarga erishish mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Chet tilini o'qitish metodikasiga oid ilmiy adabiyotlar.
2. Ingliz tilini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanmalar.
3. Zamonaviy pedagogika manbalar va internet materiallar.



4. Pedagogika va til o'rganish bo'yicha ilmiy maqolalar.
5. Jalolov J.J. Chet tilini o'qitish metodikasi. – Toshkent; o'qtuvchi 2012.
6. Otaboyeva M. Ingiliz tilini o'qitish metodikasi. – Toshkent 2017.
7. Saidov A. Chet tillarini o'qitish metodikasi asoslari. – Toshkent 2010.